

OITV - INFEKSIYASINI ANIQLASH

Odamning tashqi ko'rinishi orqali OITV bilan kasallanganligini aniqlab bo'lmaydi. OITV infeksiyasi mavjudligini aniqlashning asosiy usuli, bu odam infeksiyalanganidan so'ng bir muncha vaqt o'tgandan keyin (ko'pincha 3 oydan so'ng) vujudga keladigan virusga qarshi antitelalarni aniqlash analizini (test) topshirish bilan bog'liq. Ushbu analiz uchun tibbiyot markazida tomirdan ozgina qon olinadi.

Kasallikni boshlanishida odam o'zida hech qanday o'zgarishlarni sezmaydi. Shuning uchun, agar siz sterilanmagan shprits va igna bilan inyeksiya asosida tomir orqali quyiladigan narkotik moddalarni qachondir qabul qilgan bo'lsangiz, yoki shubhali joylarda va shubhali instrumental orqali dori vositalarni inyeksiyalar orqali qabul qilgan bo'lsangiz, shu jumladan tish davolagan bo'lsangiz ham, tatuirovka, himoyalangan jinsiy aloqa qilgan bo'lsangiz, u holda siz OITVga test topshirishingiz zarur.

OITVga testni OITS markazida va boshqa davlat tasarrufidagi barcha tibbiyot muassasalarida topshirishingiz mumkin.



OITV INFEKSIYASINI DAVOLASH

Hozirgi kunda kasallangan organizmdan virusni butunlay olib tashlashning imkoni yo'q. Biroq zamonaviy dori vositalar kasallikni keskin avj olishini ushlab turishi va to'xtatishi mumkin va bu o'z yo'lida kasallangan odamlarni sog'lig'ini sezilarli darajada yaxshilashi va umrini yillarga cho'zilishiga yordam beradi.

Sizda OITV infeksiyasi aniqlanganda ko'rsatmalar uchun va muvofiq davolanishga kechikmaslik uchun Ona davlatingizga qaytib borishingiz bilanoq, zudlik bilan maxsus tibbiy muassasaga murojaat qilishingiz zarur. RFsida OITV bilan kasallangan chet el fuqarolarni davolash uchun dori vositalarni ajratish ko'zda tutilmagan.

ROSSIYA HUDUDIDA OITV-INFEKSIYANING YURIDIK TOMONLARI:

2008-yilning 25-iyul oyidagi "Chet el fuqarolarini Rossiya Federatsiyasida (keyinchalik RF) huquqiy holati to'g'risidagi" №3 -115 – sonli (o'zgartirishlari bilan) federal qonunga muvofiq, agarda chet el fuqarosi, narkomanlik kasalligiga chalingan bo'lsa yoki ushbu shaxs unda odam immunitetining tanqisligi chaqiradigan (OITV infeksiyasi) kasallik yo'qligini isbotlovchi sertifikat bo'lmasa, yoki atrofodagilarga xavf-hatar tug'diradigan infeksiya bilan kasallangan bo'lsa u holda chet el fuqarolariga vaqtincha yashash uchun ruxsatnoma, yashash uchun guvohnoma va ishlash uchun ruxsatnoma berilmaydi va avval berilgan vaqtincha yashash uchun ruxsatnoma, yashash uchun guvohnoma va ishlash uchun ruxsatnoma hujjatlari esa bekor qilinadi.

1995-yilning 30-mart oyidagi "Odam immunitet tanqisligi virusi (OITV infeksiya) bilan chaqiriladigan kasalliklarni RF tarqalishini oldini olish to'g'risidagi" (o'zgartirishlari bilan) №3 -38- sonli Federal qonuniga muvofiq RF hududida yashab va ishlab kelayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi yo'q bo'lgan shaxslarda OITV aniqlangan bo'lsa, ular RFsida albatta deportatsiya bo'lishlari kerak. Ularga OITV -infeksiyasi yo'qligi to'g'risida sertifikat berilmaydi.

Mazkur moddaning 3-bandida nazarda tutilgan OITV infeksiyasi bilan kasallangan chet el fuqarolar va fuqaroligi yo'q shaxslarga ushbu holat taalluqli emas. (2015.12.30 №3 -438 sonli Federal qonunning tahririda).

OITV infeksiya bilan kasallangan chet el fuqarolar va fuqaroligi yo'q shaxslarga nisbatan, agar mazkur chet el fuqarolar va fuqaroligi yo'q shaxslarning oila a'zolari (eri, xotini), bolalari (asrangan bolalar ham jumladan), ota-onasi (shu jumladan o'gaylar ham) RF fuqarolari bo'lgan hollarda, yoki RF hududida doimiy yashab kelayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi yo'q shaxslar, agarda ular tomonidan OITV infeksiyasini tarqalishini oldini olish to'g'risida RFning qonunchiligini buzmagani bo'lmasalar:

Aholini sog'lig'ini saqlashni ta'minlash maqsadida RFsi hududida qolish (yashash) ma'qul ko'rmaslik yoki RFsiga kirishga man etilish to'g'risidagi qaror qabul qilinmaydi, agarda ushbu ko'rsatilgan chet el fuqarolari va fuqaroligi yo'q shaxslarga nisbatan boshqa 1996-yilning 15-avgust oyida qabul qilingan "RFsiga kirish va RFsida chiqish tartibi to'g'risidagi" №3 - 114 –sonli Federal qonunining to'rtinchi moddasining qismi bilan yoki RFsiga kirishga man etish to'g'risidagi qarori bo'yicha mazkur Federal qonunning 26 modda va 27 moddaning birinchi qismi bilan ko'zda tutilgan RFsi hududida qolish (yashash) ma'qul ko'rmasligini ko'rsatuvchi asoslar bo'lmasa;

2002-yilning 25-iyul oyida chiqqan "Chet el fuqarolarini RFsida qonuniy holati to'g'risida" №3 - 115-sonli federal qonunining 6.1 moddasidagi 5-bandining 1-past bandida ko'rsatilgan OITV infeksiya yo'qligi to'g'risida sertifikat berish qismiga oid holat, hamda mazkur Federal qonunning 7-moddasidagi 1-bandining 13-past bandi va 9-moddasidagi 1-bandining 13-past bandi OITV infeksiyasi yo'qligi tufayli sertifikat mavjud bo'lishi to'g'risidagi qismi bu holatga taalluqli emas va ko'zda tutilmagan.

OITV/OITS TO'G'RISIDAGI

MA'LUMOT SAYTIDA MAVJUD :

www.skc-spud.ru www.cpid26.pf



СТАВРОПОЛЬСКИЙ КРАЕВОЙ
ЦЕНТР СПИД

ТЕЛЕФОН ЛИНИЯСИ: +7 (8652) 94-52-83

(DUSHANBADAN JUMAGACHA SOAT 8.00 DAN 17.00 GACHA)

OITS MARKAZI MA'LUMOT UCHUN TELEFON

KISLOVODSK FILIALI +7 (87937) 2-05-71

СТАВРОПОЛЬ О'LKASINING SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

Buni bilish zarur!

16+





OITV VA OITS NIMA?

OITV – bu “odam immunitetining tanqisligi virusi”ni qisqacha nomlanishi

V (virus) – bu shunday mikroorganizmki, u tirik organizm hujayralarining ichida ko'payishi mumkin.

IT (immunitet tanqisligi) – bu organizm immun (himoyalovchi) tizimini normal ishlashini buzilishi, bu o'z holda organizmni ayrim kasalliklarga samarali qarshilik ko'rsata olmasligini yuzaga keltiradi.

O (odam) – ushbu virus faqat odamni zararlaydi.

OITV BILAN KASALLANGAN ODAMLARNI - OITV BILAN INFEKSIYALANGANLAR DEB ATASHADI.

OITS – bu “orttirilgan immunitetining tanqisligi sindromi”ni qisqacha nomlanishi

S (sindrom) – bu belgilar va simptomlar kompleksi, chunki, OITS bilan kasallangan odam bir vaqtni o'zida bir necha kasalliklar va infeksiyalarga chalingan bo'lishi mumkin.

O (Orttirilgan) – ya'ni tug'ma emas, balki aksincha hayot davomida yuqtirilgan ma'noni anglatadi.

I (immuno-) – ya'ni turli bakteriya, virus va zamburug'larga qarshi himoyani ta'minlaydigan, odamning immunitet tizimiga taalluqli.

T (tanqislik) – ayrim narsalarning yetishmovchiligi.

Demak, OITV- bu odamlarni zaharlaydigan virus, OITS esa – OITV bilan infeksiyalangan odamda rivojlanishi mumkin bo'lgan kasallikdir.

OITV bilan infeksiyalangan odamda, bordi-yu ushbu infeksiyalangan odam maxsus terapiyani qabul qilmayotgan bo'lsa, OITSni boshlanishi o'rtacha 10 yilni tashkil qiladi.

OITV BILAN KASALLANISH XAVFINI QANDAY QILIB PASAYTIRISH MUMKIN?

Zararlanishdan yuqori darajada himoyani prezervativ vositasidan foydalanish ta'minlaydi. Zararlanishning boshqacha yo'lini oldini olish uchun birovlarni qoni bilan aloqa qilmaslik kerak. Shuning uchun:

- agar iloji bo'lsa o'zingizni turmush o'rtog'ingizga vafodor bo'lishga harakat qiling yoki jinsiy aloqada bo'ladigan odamlaringiz sonini kamaytiring,

- har jinsiy aloqada prezervativni ishlatib,

- faqat o'zingizni shaxsiy gigiyena vositalaringiz bilan foydalaning (tish cho'tka, piska va soqol oladigan britvalar, hamda o'zingizni manikyur vositalaringiz),

- agar siz tatuirovka qilishga qaror qilgan yoki quloq teshmoqchi bo'lsangiz u holda faqat steril asboblardan foydalaning.

- dori vositani inyeksiya turini qabul qilayotgan bo'lsangiz faqat bir marotaba ishlatiladigan yoki sterilangan shprits va ignani ishlatib,

- farzand ko'rishni rejalashtirayotgan yoki homilador bo'lsangiz test tekshiruvlari uchun OITS markaziga yoki boshqa tibbiyot muassasasiga iloji boricha tezroq uchrashing. OITV infeksiyasi aniqlanganida zamonaviy dori vositalarni avvalroq qo'llashni boshlash homilani OITV bilan infeksiyalanish xavfini pasaytirishi mumkin.

OITV QANDAY YUQADI?

OITV INFEKSIYASINI YUQISHNING FAQATGINA UCH YO'LI BOR:



JINSIY - HIMOYALANMAGAN (YA'NI PREZERVATIVSIZ) JINSIY ALOQA NATIJASIDA;



INSON ORGANIZMIGA VIRUSLI QON KELIB TUSHSA, AKSARIYAT HOLLARDA STERILLANMAGAN SHPRITSLAR VA ULARNING IGNASI ORQALI (ASOSAN INYEKSION NARKOTIK MODDALARNI TOMIR ORQALI YUBORILAYOTGAN, HAMDA UMUMIY BO'LGAN SHPRITSLAR VA IGNALAR BILAN TATUIROVKALAR TUSHIRILAYOTGAN PAYTDA);



HOMILADORLIK, TUG'RIQ VA KO'KRAK SUTI BILAN EMIZISH VAQTIDA - CHAQALOQLARNI OITV-INFEKSIYALANGAN ONADAN ZAHARLANISHI.

OITV INFEKSIYASI MAISHIY SHAROITDA YUQMAYDI.



YA'NI QO'L BERIB KO'RISHISHDA, QUCHOQLASHISHDA YOKI O'PISHISHDA,



KASALLANGAN ODAM YO'TALGANDA VA AKSIRGANDA, HASHORATLAR CHAQQANIDA,



KASALNING BUYUMLARI VA IDISH TOVOQLARI ORQALI (SHU JUMLADAN TO'SHAGI, CHOY SHABLARI VA SOCHIQLARI, TAROQ VA H.K.),



BIR CHO'MILISH XAVZASI, TUALET VA BOSHQALAR BILAN FOYDALANGANDA YUQMAYDI.

Kasalning tupugida, so'lagida, ko'z yoshlarida va siydigida virusning hajmi juda kam bo'ladi, shuning uchun ushbu suyuqliklar orqali virusning yuqishi mumkin emas.